

Ta'lim jarayonida pedagogning innovatsion kasbiy faoliyati va xususiyatlari

Sojida Muxammadovna Raxmonova

Buxoro davlat universiteti

Dilfuza Murotovna Murtazoyeva

raxmonovasojida9@gmail.com

Bobkent tuman 17-DMTT

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak pedagoglarini innovatsion kasbiy faoliyatini takomillashtirish, ta'lim sohasidagi yangicha yondashuvlar, ta'limiy innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining mavjud shakl va vositalari, ta'limdagi innovatsiyalar va innovatsion ta'limiy faoliyat, pedagogning innovatsion faoliyati xususiyatlari haqida umumiy ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion kasbiy faoliyat, innovatsion ta'limiy faoliyat, ta'lim jarayon, innovatsiya, kreativ, pedagogik mahorat, kompetentlik

Innovative professional of the pedagogue in the educational process activities and features

Sojida Mukhammadovna Rakhmonova

Bukhara State University

Dilfuza Murotovna Murtazoyeva

rakhmonovasojida9@gmail.com

Bobkent district, SPO №17

Abstract: In the article, the existing forms and means of ideas for improving the innovative professional activity of future pedagogues, new approaches in the field of education, educational innovation and renewal of the educational process, innovations in education and innovative educational activities, innovative activities of the pedagogue General information about the characteristics of the activity is given.

Keywords: innovative professional activity, innovative educational activity, educational process, innovation, creative, pedagogical skill, competence

“Innovatsiya-yangilik” so‘zining qachon paydo bo‘lganligi aniq bo‘lmasada, bu tushuncha umumiy fanlarga tabiiy fanlardan kirib kelganligi haqida fikrlar mavjud.

Bugungi kunda ta'lim sohasida yangi ilmiy yo'nalish - ta'limiy innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining paydo bo'lishi natijasida ta'limiy faoliyatda ham yangi yo'nalish "innovatsion faoliyati" tushunchasi paydo bo'ldi.

Innovatsion faoliyat - pedagogning o'z kasbini mukammallashtirish va uni takomillashtirishdagi mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni egallashida ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta'limdagi innovatsiyalar va innovatsion ta'limiy faoliyat mukammal tarkib topmagan shu bilan birga aniq bir to'xtamli bo'lmagan ilmiy faoliyat ekanligini e'tirof etish lozim. Buning asosiy sabablaridan biri ta'limiy bilim va amaliy ta'limiy faoliyat o'rtasidagi uzilishdir. Pedagog innovatsion faoliyatning subyekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, uni faoliyatda qo'llay olish hamda targ'ibot etishda ishtirok etar ekan, faoliyatning samaradorligi va natijadorlikni anglamog'i, fandagi bilim, an'analardagi o'zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi lozim.

Innovatsiya o'zi nima? Innovatsiya - amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, nafaqat ta'limdagi balki barcha sohalaridagi sifatlarini yaxshilashga qaratilgan maqsadli harakat tizimidir. Innovatsiya va faoliyat bir-biri bilan uyg'unlashib obyektning maqsadli va samarali harakatlanishiga olib keladi.

Innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsiya, innovatsion jarayon, ijodkorlik, kreativlik kabi tushunchalar bilan chambarchas boq'liq. Shu sababli bu tushunchalar mazmunini izohlamasdan turib, innovatsion faoliyat mazmunini anglash mumkin emas. Innovatsiyaning maqsadi-ta'limiy faoliyatda sarflangan kuchdan maksimal natija olishdan iborat.

Bugun ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma'qullanmoqda:

1. Faoliyat yo'nalishiga qarab
2. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra
3. O'zgarishlar ko'lamiga ko'ra
4. Kelib chiqish manbaiga ko'ra

Innovatsion faoliyat - maksimal maqsadli natija olishga qaratilgan, ta'limiy jamoani harakatga keltiruvchi kuchdir. Innovatsiya esa tizimli, yaxlit va davomli bo'lib, faoliyatni loyihalaydi, yangicha yo'nalishlarni, yangi texnologiyalarni yaratib, faoliyatga qo'llab yangi sifat natijalariga erishishni ko'zlaydi. Innovatsion ta'limiy faoliyatda qo'llanadigan har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Qachonki ma'lum yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi aynan tizimi rivojlanishiga va takomillashuviga yoki uning o'zgarishiga, olib kelsagina, uni innovatsiya deyish mumkin.

"Innovatsion faoliyat - bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi, yohud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yoring mavjud

me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmualari muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir",-deb ta'kidlaydi V.I.Slobadchikov.

Innovatsion faoliyat ta'limiy jarayondagi har qanday vaziyatdagi muammolarni hal etish uchun qulay jarayon bo'libgina qolmay, sifat samaradorlikni yaxshilashga qaratilgan pedagogning harakat tizimi hisoblanadi. O'z navbatida bu tizim amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib xizmat qiladi. Amaliyot va nazariyada innovatsion ta'limiy faoliyatining bosh masalasi esa pedagogning ta'limiy jarayonni samarali va natijadorli tashkil eta olishidan iboratdir.

Innovatsion faoliyat - uzoq vaqt davomida uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash evaziga shakllanadi va takomillashib boradi. Innovatsion faoliyatning harakatga keltiruvchi pedagog jarayonni tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalana bilmog'i lozim. Pedagogik texnologiya - bu ta'lim shakllarini optimallashtirish, o'qitish va o'zlashtirish, qo'llash va natijaga erishishning tizimli usuli. Pedagogik texnologiya ta'lim berishda qo'llaniladigan eng oqilona usullar va vositalar, rejalashtirilgan ta'lim natijalariga erishish uchun maqsadlar majmuasidir.

Pedagogning innovatsion faoliyati xususiyatlari olimlar fikrlariga tayangan holda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin:


- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- ta'limiy tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglarning tajribalarini qo'llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish

Innovatsion faoliyat tushunchasiga to'xtaldik. Ho'sh innovatsion jarayon bu nima? Innovatsion jarayon bu - innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytiladi. Pedagog faoliyatini yangilashi va o'zgartirishi orqali ta'lim jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar bevosita amalga oshiriladi. Pedagoglarning innovatsion faoliyatga tayyorligi innovatsion jarayonlar dinamikasining o'sib borishiga sabab bo'ladi.

Innovatsion jarayon tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdir. Ya'ni yangiliklarni izlab topish yoki yaratish, uni moslashtirish, tatbiq etish va olingan natijalarni qayta tekshirish kabi jarayonlarni o'zida aks ettiruvchi tizim sifatida ifodalash mumkin.

Innovatsion faoliyatning tuzilishini o'rganib chiqqan olimlardan biri V.Slastenin "Innovatsion faoliyatning tuzilishi - ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyatidir", - deb ta'kidlaydi.

Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, o'zgarishlar, moslashtirishlar ta'lim jarayoniga kirib keladi. Shu sababli ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni ta'limiy jarayonga kiritish 4 bosqichda amalga oshiriladi:



1-rasm. Innovatsiyalarni ta'limiy jarayonga kiritish bosqichida

Xulosa qilib aytganda pedagogning innovatsion ta'limiy faoliyatga to'laqonli tayyorlashdan maqsad - ularning kreativligini, yangilikka intiluvchanligini, muntazam ilmiy izlanish va mustaqil o'z ustida ishlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi ta'limiy texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, mashq'ulot va undan tashqari ishlarni o'tkazish malakasini takomillashtirish pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanishga o'rgatishdan iborat.

Shunday ekan, innovatsion faoliyat - bu ilmiy izlanishlar, yangiliklar, loyihalar yaratish, tajriba - sinov ishlari olib borish yoki pedagogik texnologiyalarga tayangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan loyihalar yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'.J. To'ldoshev. Umumiy pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya”, 2017 y. - 376 bet.
2. R.J. Ishmuxamedov va boshqalar “Ta'limda innovatsion texnologiyalar”. T.: Iste'dod. 2008 y.
3. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: 2013 y. -279 bet.
4. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017 yil. -416 bet.
5. Sh.S. Shodmonova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: “Fan va texnologiya”. 2019 y. -296 bet.
6. A.A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet
7. T.Madumarov, M. Kamoldinov Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari va uni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash. T.: “Talqin”, 2012 y.
8. N.S. Sayidahmedov, S.A. Abduraximov Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya monografiya. – T.: OPI, 2010 y.

9. M.X. To‘xtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika. Darslik.T.: O‘zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010 y. -400 bet.

10. S.M.Raxmonova DIDACTIC POSSIBILITIES OF IMPROVING THE METHODOLOGY FOR PREPARING FUTURE EDUCATORS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITIES. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT ISSN: 2792 – 1883 | Volume 2 No. 12 <https://literature.academicjournal.io> 16.12.2022 y.36-40 bet.

11. S.M.Raxmonova МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРГА ТАЪЛИМ БЕРИШДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВ. Respublika OAK. Илимий-методикалық журнал 5/1 2022 y.101-105 bet